

## ZARAFSHON DARYOSI QIRG'OGIDAGI QADIMIY MASKAN – KARMANA

To'rayev Anvar Ismoilovich

Buxoro davlat universiteti

Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasи katta o'qituvchisi

Nizomova Feruza

Buxoro davlat universiteti

Tarix ta'lif yo'nalishi 4-kurs talabasi

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada Markaziy Osiyo, ayniqsa mintaqamiz tarixi naqadar boyligi, tarixiy qadamjolar, yodgorliklar safi ko'pligini ko'rsatib berish maqsadida mamlakatimizdagi yana bir qadimiy tarixga ega maskan Karmana tarixi qisman yoritib o'tilgan. Yozma manbalarda, tarixiychilarning asarlarida Karmana tarixi haqida keltirilgan ma'lumotlar ham bu maqolamizda bayon etilgan. Shu bilan birga mazkur maqolada yana qadimiy Karmana hududidan yetishib chiqqan buyuk olimlar, karmanalik milliy qahramonlar, mo'tabar shayx-u ulomolari haqida hamda Karmananing tarixiy voqealar guvohi bo'lgan noyob tarixiy obidalari haqida ham fikr yurutilgan.

**Kalit so'zlar:** Karmana, Quyi Zarafshon, Navoiy, Narshaxiy “Buxoro tarixi” asari, “Bodyayi xurdak”, Xarimankent, Buxoro, sayyidlar, xo'jalar, tarix, Sayyid Abdulaxadxon, Hazrat Qosim Shayx Azizon.

### KIRISH

Yozma manbalarning, qadimiy yodgorliklarning guvohlik berishicha Vatanimiz O'zbekiston uzoq moziydayoq Sharqning moddiy, madaniy jihatdan yuksak rivojlangan mintaqalaridan hisoblanadi. Buni uch-to'rt ming yillar muqaddam shakllangan o'nlab shahrlar tarixi misolida ham bilib olsa bo'ladi. Qadimshunos olimlarning o'ta izlanuvchanlik bilan olib borgan tekshirishlari shuni isbotladiki, O'zbekiston hududida, xususan uning Zarafshon vohasida urbanizatsiya jarayoni, ya'ni shaharlarning shakllanishi, shahar madaniyati Markaziy Osiyoning boshqa mintaqalariga nisbatan juda erta boshlangan. Ana shunday qadimiy, tarixiy shaharlardan biri Zarafshon daryosi sohilida o'nlab asrlar davomida salobat bilan turgan Karmana shahridir. Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov faxr bilan takidlaganlaridek “Zarafshon voqasi tarixi ham qadimiy Vatanimiz tarixinining uzviy bir bo'lagi hisoblanadi. Shu ma'noda bu yerdagi har bir obida, karvonsaroy va rabot biz uchun mo'tabar bo'lib, ularni asrab-avaylashimiz, o'rganishimizga davat etadi” [1,164].

### ASOSIY QISM.

Buyuk Ipak yo'li ustida, Sharq durdonalari bo'lmish Buxoro va Samarcand o'rtaida joylashgan Karmana - tarixiy voqealar guvohi bo'lib, noyob tarixiy obidalari bilan mashhur bo'libgina qolmay, balki buyuk olimlari, milliy qahramonlari, mo'tabar shayx-u ulamolari bilan ham dunyoga tanilgan qadimiy diyordir.

Karmana zamini muqaddas bo'lib, tabarruk tuproqqa Amir Temur va qator temuriylarning qadami tekkan. Bu zaminni bosqinchilardan ozod qilishda Maxmud Tarobiy jon fido etgan, Mirza Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur bu zaminda ma'lum davrlarda to'xtab o'tganlar, Xudoydodi Vali, Maxdumi A'zam, Qosim Shayxdek din peshvolari Karmanada yashaganlar, Buxoro xonligi asoschisi, shayboniylar sulolasining vakili Abdullaxonni Karmana zamini voyaga etkazgan, mang'itlar sulolasining vakili Buxoro amiri Abdulla hadxon va uning o'g'li Amir Olimxon Karmanada tug'ulib, bunda ko'plab chorbog' va saroylar barpo ettirganlar.

Karmana - Navoiy viloyatidaga shahar [2,21]. Tarixchi Narshahiyning "Buxoro tarixi" asarida yozishicha, "Karmana Buxoro qishloqlaridan bo'lib, uning suvi Buxoro suvidan keladi, hiroji Buxoro hirojiga qo'shiladi. Uning o'ziga tegishli alohida bir qishloq ham bor: unda masjidi jome barpo etilgan. Karmanada adib va shoirlar ko'p bo'lgan. Masalda aytilishicha, Qadim vaqtarda Karmanani "Bodyayi xurdak" ("Ko'zacha") deb ataganlar. Buxorodan to Karmanagacha o'n to'rt farsangdir" [3,20].

Mashhur qadimshunos olim M.M. Ishoqov esa, Karmana (Karmina) toponimi tarkibi "xar" - "katta karvon yo'li", "maena" – (qadimgi avestocha medana) o'rtaliq qismlariga ajratiladi, deb ko'rsatadi. Demak, Karmana "karvon yo'li yarmida joylashgan manzil" deb izohlanishi mumkinligiga ishora qiladi.

Ayrim tadqiqotchilar toponim turkcha Karman – "qishloq" (qadimda shahar) so'zi orqali yasalgan deb tahmin qilishadi. Karmana so'zining yozma manbalarda uchraydigan Xarimankent – "katta manzilli Kent" shaklidagi ma'nosи haqiqatga yaqin bo'lsa kerak deydi tarixchi Muhammadjonov.

Yozma ashyoviy dalillarga qaraganda, Karmana ham Buxoro, Samarcand, Termiz, Toshkent, Xiva kabi qadimiy shaharlardan hisoblanadi. Agar tarixchi, kadimshunos olimlarning ilmiy jamoatchilik tomonidan e'tirof etilgan fikrlariga ko'plab ashyoviy, yozma dalillarga, tabiy, geografik, iqtisodiy, urbanik va hakozo xulosalarga asoslansak bundan uch ming yillar avval Zarafshon daryosining janubiy sohilida Samarcand bilan Buxoroni bog'lab turuvchi karvon yo'li chorrahasida Karmana shahri shakllana boshlagan. Bu hududda aholi nihoyatda ko'p va tig'is yashaganlar [4,44]. Ular, asosan dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanganlar. Karmananing tez yuksalishida ko'plab ijtimoiy, iqtisodiy, geosiyosiysi kabi omillari bo'lgan. Karmana madaniy, ma'naviy salohiyatining asosida muhim iqtisodiy omillar turgan. Chunki, Karmananing iqtisodiy jihatdan tez rivojlanishiga Zarafshon daryosining shimoliy va janubiy qirg'oqlarida tekis, serunum yerlarning ko'p bo'lganligi, Buyuk Ipak yo'li chorrahasida joylashganligi, turli kasbdagi hunarmandchilikning mustahkam qaror topganligi kabi omillar asos bo'lgan. Har qanday iqtisodiy rivojlanish albatta madaniy, ma'naviy yuksalish o'z navbatida ijtimoiy, iqtisodiy jarayonlarning faollashuviga sabab bo'ladi.

Karmananing madaniy, ma'naviy hayoti to'g'risida turli davrlarda yuzlab kitoblar yozilgan. Quyi zarafshon vohasi, jumladan Karmana hududi o'zining qadimiy madaniyati va ma'naviyati bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Karmana zamini ming yillar davomida jahon

sivilizatsiyasi, manaviy madaniy va diniy qadriyatlari taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan yirik markazdir. Agar O'zbekiston – Markaziy Osiyonong tafakkur beshigi bo'lsa, Karmana beshigi avliyolar o'sgan shahar. Karmana o'zining yuksak darajada rivojlangan ko'hna ma'naviy salohiyati bilan Samarqand, Buxoro, Xiva kabi qadimiy shaharlarga tenglashishi bilan birga Rim, Afina Bobil, Misr kabi jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan qadimiy shaharlar bilan bir qatorda turadi, degan xulosaga kelsak mubolag'a bo'lmaydi. Karmana zaminida tosh davrining o'rta bosqichlaridayoq ilk madaniyat asta sekin shakllana boshlagan. Binobarin Sarmishsoy darasidagi qoyatosh suratlari Karmana zaminida yashagan ajdodlarimizning yuksak manaviyati va madaniyatidan darak beradi. Karmana – qadimiy Miyonqolning nafaqat ma'muriy, balki ma'naviy va madaniy markazi ham hisoblanadi [5,18]. Bu omil, ayniqsa somoniylar sulolasi hukumronligi va undan keying davrlarda yanada rivojlandi. Karmanaga Xoja Abduxoliq G'ijduvoni, Mavlono Orif Degtaroni, Xoja Bahouddin Naqshband, Amir Temur, Xoja Ahror Valiy, Mahdumi Azam, Qosim Shayx Azizon kabi pirlar, avliyolar, davlat rahbarlari alohida e'tibor bergenlar.

Karmana – Pasululloh avlodlari – Sayyidlar qo'nim topgan, muqim yashagan shahar ham bo'lган. Karmana sayyidlari Buxoro xonligning ma'naviy, diniy xayotida katta mavqega ega bo'lганlar, muhim o'rin tutganlar. Karmana XVI-XIX asrlarda ham o'sha iqtisodiy, madaniy, ma'muriy markazlik holatini saqlab qolgan. Shayboniyalar, ashtarxoniyalar, mang'itlar sulolalari hukmronligi davrida Karmana, Buxorto davlatining yirik bekligi, norasmiy poytaxti hisoblangan. Xonlar davlatni shu yerdan turib boshqarganlar. Necha yuz yillar davomida Karmana o'zining ma'naviy, islomiy salohiyatini saqlab kelgan. Karmana sayyidlari, xojalari, buxorolik, nasaflik Sayyid Amir Kulol, Sayyid Baraka, Juypor shayxlari Xoja Islom, Xoja Sa'dlar bilan hamkorlik qilganlar, Buxoro xonligining ma'naviy, ruhiy holatiga kuchli tasir o'tkazganlar. Masalan karmanalik Hazrat Qosim Shayx Azizon Boxoro hukmdori Abdullaxon II ning piri bo'lган. Abdullaxon II Karmanaga piri huzuriga tez-tez kelib turganligi, u zotdan maslahatlar olganligini tasdiqlovchi yozma, ashyoviy dalilar mavjud. Abdullaxon II 1581-yilda piri vafot etgach, unis hu yerda dafn qilib, katta xonaqo va masjid majmuasini qurdirdiki, hozir ham bu tarixiy obida obod, hamisha gavjum ziyoratgoh sifatida saqlanmoqda. Qosim Shayx xonaqosida turli davrlarda Zarafshon vohasining hurmatli, martabali insonlaridafn qilingan. Jumladan, Buxoro amiri Sayyid Abdulaxadxon jasadi ham shu yerga dafn qilingan. Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov takidlaganlaridek: Karmanadagi "Qosim Shayx, Mir Sayyid Baxrom, Shayx Xo'ja Xusrav maqbaralari, Mirzachorbog' tarixiy yodgorligi, Raboti Malik... xalqimizning ma'naviy Mulki bo'lган bu yodgorliklar el-yurtimiz, davlatimiz, lamiyatimiz e'tiboridan chetda qolmaydi" [1,165].

Shular singari zoti azizlaru va shayxlар faoliyatini, ularning boy tarixiy merosining tadqiq va tashviq etishga bugungi kunda ma'naviy ehtiyoj tug'uldi. Zeroku ular jamiyatdagi ma'naviy muvozanatni saqlab turishga harakat qilganlar, qonli nizolarning oldini olishga intilganlar, ko'pgina muammolarni tinchlik yo'li bilan hal qilganlar. Hukmdorlarga manaviy ozuqa berib, o'z pand-nasixatlari, maslaxatlari, yo'l-yo'riqlari bilan ularni nomaqbul ishlardan qaytarib, xayrli ishlarga chorlab turganlar. Islom ravnaq topgan o'rta asrlar mashoyixlarning

hukmdorlarga bo'lgan tasirining yuqori bo'lishi tabiiy hol edi. Ammo yaqin-yaqinlargacha chalg'itilgan ijtimoiy fikr ta'siri ostida ular reaksiyon sanalib, faoliyatları faqat qora bo'yodda ko'rsatildi. Nomlari topdaldi, ruhlari bezovta qilindi. Shukrlarkim, bugungi kunda ular faoliyatiga va shahidlar tarixiga xolisona baho berish imkoniyatiga egamiz. Buyuk Ipak yo'li ustida joylashgan Karmana, ana shunday ulug' insonlar, tarixiy voqealar guvohi bo'lgan, maskanlardan biri hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Каримов И. Озод ва обод ватан, эркин ва фаровон ҳаёт - пиравард мақсадимиз. 8-том. -Т.: «Ўзбекистон», 2000. – В. 164-165.
2. Juma A. Quyi Zarafshondagi joy nomlari tarixidan. Buxoro – 2006. - В. 21.
3. Наршахий. Бухоро тарихи.-Т.: “Фан”; 1996. – В. 20.
4. Muhammadjonov A. Qadimgi Buxoro. Т.: “Fan”; 1991. – В. 44
5. Tarix va xozirgi zamon mavzuida o'tkazilgan ilmiy-nazariy konferensiya materiallari: “Quyi Zarafshon vohasi” -Т.: “Fan”; 2005. - В. 18.
6. Askarov A. Buxoroning ibtidoiy davr tarixidan lavhalar. Т.: “Fan”;1973. В. 4.